

**BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI VA INSON HUQUQLARI
HIMOYASI**

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti
Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 302-guruh talabasi
Tursunboyeva Sarvinoz*

Annotatsiya: Ushbu maqola Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) inson huquqlarini himoya qilishdagi o'рни va ahamiyatini tahlil qiladi. BMT inson huquqlarini himoya qilish va targ'ib qilishda global miqyosda faoliyat yurituvchi asosiy xalqaro tashkilot hisoblanadi. Maqolada BMTning tashkil etilishi, uning asosiy maqsadlari, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha qabul qilingan xalqaro hujjatlar va mexanizmlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, inson huquqlarini himoya qilishdagi mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari tahlil qilingan.

Abstract: This article analyzes the role and importance of the United Nations (UN) in the protection of human rights. The UN is the main international organization acting globally to protect and promote human rights. The article examines the establishment of the UN, its assistance, the documents and mechanisms adopted for the protection of human rights. , existing problems in the protection of human rights and their solutions are analyzed.

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение Организации Объединенных Наций (ООН) в защите прав человека. ООН является главной международной организацией, действующей во всем мире по защите и поощрению прав человека. В статье рассматривается создание ООН, ее помощь, документы и механизмы, принятые для защиты прав человека. , анализируются существующие проблемы в области защиты прав человека и пути их решения.

Kalit so'zlar: inson huquqlari ,BMT, tinchlik , deklaratsiya , pakt , ustav ,xavfsizlik, iqtisodiy-ijtimoiy huquqlar,

Key words: human rights, UN, peace, declaration, pact, charter, security, economic and social rights.

Ключевые слова: права человека, ООН, мир, декларация, пакт, хартия, безопасность, экономические и социальные права.

Kirish .Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) inson huquqlarini himoya qilishda xalqaro hamkorlikning eng muhim instituti hisoblanadi. 1945-yil 24-oktabrda tashkil etilgan BMTning asosiy vazifalari tinchlikni ta'minlash, xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash va inson huquqlarini himoya qilishdan iboratdir. Inson huquqlari har bir insonning tug'ilishdan boshlab ega bo'lgan asosiy huquq va erkinliklari majmuasini anglatadi. Ushbu tushuncha ham "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"da

alohida takidlab o'tilgan. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 1-moddasida "Hamma odamlar o'z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar..."¹ -ushbu jumlaning o'zida ham inson huquqlari hammaga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi, degan xulosani beradi. BMT inson huquqlarini himoya qilishni o'zining asosiy maqsadlaridan biri sifatida belgilagan. Buning uchun tashkilot global miqyosda huquqlarni targ'ib qilish, xalqaro standartlarni ishlab chiqish va ularning ijrosini ta'minlash bo'yicha mexanizmlarni yaratdi.

BMT tomonidan qabul qilingan inson huquqlari bo'yicha asosiy hujjatlar mavjud. Bularga, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil 10-dekabr)

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni belgilovchi birinchi hujjat hisoblanadi. 30 modda o'z ichiga olgan bu hujjat shaxsiy erkinlik, mulk huquqi, ta'lim olish huquqi va tenglik kabi tamoyillarni kafolatlaydi. Ushbu hujjatda insonning barcha huquqlari kafolatlab berilgan desak, mublag'a bo'lmaydi. Ushbu hujjatdagi barcha moddalar ham bizning bosh, oliy qomusimiz bo'lgan konstitutsiyamizda ta'kidlab o'tilgan.

Bundan tashqari, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'risidagi xalqaro pakt (1966-yil). Bu pakt siyosiy va shaxsiy erkinliklarni, masalan, so'z erkinligi, saylov huquqi, va sud-huquq jarayonidagi tenglikni mustahkamlashga qaratilgan. Shuningdek, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar xalqaro pakti (1966) ham shular jumlasidandir. Mazkur pakt insonning mehnat qilish, sog'liqni saqlash xizmatidan foydalanish, ta'lim olish va madaniy hayotda ishtirok etish kabi huquqlarini himoya qiladi.

BMTning inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha mexanizmlari ham mavjud.

Ziddiyatlar va zo'ravonlikka qarshi kurash: BMT inson huquqlarining buzilishiga sabab bo'ladigan qurolli mojarolar va jinoyatlarga qarshi turadi. Jumladan, genotsid, etnik tozalash va boshqa xalqaro jinoyatlarga e'tibor qaratadi. BMT davlatlarni inson huquqlariga rioya qilish borasidagi xalqaro standartlarga mos ravishda harakat qilishga undaydi. Davlatlarning bu boradagi faoliyati va majburiyatlari doimiy ravishda monitoring qilinadi.

BMTning inson huquqlari bo'yicha vazifasi- inson huquqlari himoyachisi sifatida barcha insonlarning qadr-qimmati, erkinliklari va huquqlarini teng himoya qilishga intiladi. Shu bilan birga, davlatlarni milliy qonunchilik va amaliyotini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga da'vat etadi. BMTning inson huquqlari bo'yicha tashabbuslari- ijtimoiy tenglikni va jinsiy, irqiy, diniy teng huquqlikni ta'minlashga qaratilgan xalqaro konventsionalarni qabul qilganligidan ham ma'lum. Inson huquqlari ta'limoti ham BMTning asosiy maqsadlaridan biridir. BMT, o'zining global ta'lim

¹ Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1-modda

platformalari orqali, inson huquqlari haqida xalqaro miqyosda targ‘ibot o‘tkazadi va jamiyatlar o‘rtasida huquqiy savodxonlikni oshiradi.

Xulosa

BMT inson huquqlari himoyachisi sifatida barcha insonlarning asosiy huquqlarini, erkinliklarini va qadr-qimmatini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Tashkilotning asosiy hujjatlari, organlari va mexanizmlari orqali global miqyosda inson huquqlarining buzilishiga qarshi kurash olib borilmoqda. BMT har doim inson huquqlarini rivojlantirish, adolatli va teng huquqli jamiyatlarni yaratishga yordam beradigan global platforma sifatida xizmat qilishga intiladi. Inson huquqlarini himoya qilish borasidagi jahon hamkorligi va BMTning faoliyati butun dunyo miqyosida barqarorlik va tinchlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. BMTning asosiy maqsadi — har bir insonning asosiy huquqlarini, erkinliklarini va qadr-qimmatini himoya qilishdir. Bu, nafaqat davlatlar o‘rtasida tinchlikni saqlash, balki har bir fuqaroning huquqlari ta‘minlangan adolatli jamiyatlar yaratishni anglatadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti inson huquqlari sohasida butun dunyo bo‘ylab mustahkam asosiy tashkilot hisoblanadi. U nafaqat davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni ta‘minlab, balki har bir insonning erkinligini, qadr-qimmatini va asosiy huquqlarini himoya qilishda kuchli platforma sifatida faoliyat ko‘rsatadi. BMTning faoliyati o‘zining xalqaro huquqiy asoslari, organlari va metodologiyalari orqali amalga oshiriladi. BMT o‘zining barcha a‘zo davlatlariga inson huquqlarini himoya qilishda nazorat o‘rnatib, har qanday zo‘ravonlik, diskriminatsiya, yoki qonunbuzarliklarga qarshi kurashish, adolatli va teng huquqli jamiyatlarni yaratish uchun faoliyat yuritadi. BMTning yuksak maqsadi — har bir insonning huquqlari himoya qilingan va ularga teng imkoniyatlar berilgan bir dunyo yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Inson huquqlari umujahon deklaratsiyasi 1948-yil 10-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 2023-y
3. Davlat huquq va nazariyasi 2019-y
3. A. Tadjibayev, K.R. Ramazonova “ Inson huquqlari” o‘quv qo‘llanmasi
4. Raxmonqulov H.R Fuqarolik huquqi va muammolari: Darslik, I-qism.
– T., 2010.